QASHQADARYO VILOYATI G‘UZOR TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G‘uzor shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 14-uy.Tel:75.552-13-60

2022 - yil 29 - sentabr 388-4-56-Q/22 G‘uzor tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2023-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda belgilangan vazifalar ijrosi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni o’zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o’rinlarining eng kam soni va ularga qo’yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning ro’yxatdagi o’rtacha sonining 7 foizi miqdorida, bu 146-kishini (2-ilovaga muvofiq) tashkil etadi.

Shu jumladan:

- o’n to’rt yoshgacha bolalari bo’lgan va nogiron bolalari bo’lgan yolg’iz va ko’p bolali ota-onalar uchun 3 foiz (5 kishi);

- umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo’yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 75 foiz (113 kishi);

- safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 3 foiz (4 kishi);

- nogironlar uchun 4 foiz (6 kishi);

- pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 3 foiz (5 kishi);

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar, 5 foiz (7 kishi);

- odam savdosi qurbonlari uchun 4 foiz (6 kishi).

3. Ish beruvchilar ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalariga va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasin.

Bunda: nogironlar uchun salomatligi va mehnat faoliyatiga nisbatan qo‘yiladigan belgilangan talablar hisobga olingan holda mehnat vazifasini to‘siqsiz bajarish imkonini beruvchi ish joylari; yoshlar uchun, ular umumta’lim muassasalarini tamomlaganlaridan keyin ularning kasb-hunar tayyorgarligiga muvofiq keluvchi ish joylari; 14 yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalarga hamda ko‘p bolali ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bajarishni birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi, o‘zgaruvchan jadvalli ish joylari; jazoni ijro etish muasasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun ularning kasb tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari.

4. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zahiraga qo‘yilishi va tayyorgarligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazini xabardor qilinsin.

5. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zahiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

6. Ushbu qarorda nogironlar uchun zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonidan ortiqcha nogironlar uchun ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlar belgilanadi.

7. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zahiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining qarorini bajarmagan korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilangan.

8. Barcha korxona, tashkilot va muassasalar har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga 3-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida ma’lumot taqdim etsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston

Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31-may 2019-yil) buyrug‘iga asosan, subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olgan holda, “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorida ishga qabul qilgan korxona va tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oyi davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash tavsiya etilsin.

10. Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi direktoriga:

bir hafta muddatda, mazkur qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlar e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.

11. Tuman hokimining 2021-yil 19-oktyabrdagi 267-4-56-Q/21-sonli qarori 2022-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari L.Xudayqulov zimmasiga yuklatilsin.

13. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **B.Suyunov**

G‘uzor tuman hokimining
2022 yil 29 sentabrdagi
388-4-56-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Belgilanishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlarining eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya
T A R K I B I

T/p	F. I. Sh	Lavozimi
1	L.Xudayqulov	Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, **Ishchi komissiya raisi**
A ’ Z O L A R I		
2	S.Shamsiddinov	Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazining ishsizlarni ishga joylashtirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shu’basi boshlig‘i, **Ishchi komissiya raisi kotibi**
3	Z.Tursunov	Tuman IIB boshlig‘i
4	Z.Qadirov	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
5	S.Babaqulov	Tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i
6	A.Turanov	Tuman byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi boshlig‘i
7	D.Shaymardonov	Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i

G‘uzor tuman hokimining
2022 yil 29 sentabrdagi
388-4-56-Q/22-son qaroriga
2-ilova

G‘uzor tumani bo‘yicha 2023 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	Ijtimoiy muxofazaga muxtoj , ish topishda qiynalayotgan va mexnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro'yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni	Shu jumladan						
				14 yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Umumiy o'rta maxsus, kasb xunar ta’limi muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Safarbarlik chaqiruv zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Qurolli kuchlari saflaridan muddatli xarbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Odam savdosi qurbonlari uchun band qilingan ish o'rinlari soni
1	Xalq ta’limi bo‘limi	68	**4**	0	3	0	1	0	0	0
2	G'uzor tuman Tibbiyot birlashmasi	3739	**42**	2	32	1	5	2	0	0
3	Shurtan Gaz Kimyo majmuasi(shgkm)	4295	**41**	2	31	1	5	2	0	0
4	G'uzor tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	260	**10**	0	5	1	0	0	4	0

5	50-sonli o‘rta ta’lim maktabi	88	**1**	0	1	0	0	0	0	0
6	G‘uzor tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi	101	**4**	1	1	1	0	0	1	0
7	41-sonli o‘rta ta’lim maktabi	51	**1**	0	1	0	0	0	0	0
8	40-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**43**	**1**	1	0		0		0	0
9	36-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**66**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
10	G‘uzor tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	31	**2**	1	1	0	0	0	0	0
11	G‘uzor tuman SEOM	81	**6**	1	5	0	0	0	0	0
12	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	28	**2**	1	1	0	0	0	0	0
13	35-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**38**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
14	34-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**106**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
15	31-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**65**	**1**	0	1	0	0	0	0	0

16	30-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**44**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
17	28-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**83**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
18	27-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**58**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
19	26-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**80**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
20	25-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**29**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
21	24-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**50**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
22	23-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**86**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
23	22-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**114**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
24	21-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**97**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
25	20-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**97**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
26	19-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	**54**	**1**	0	1	0	0	0	0	0

27	18-sonli o‘rta ta’lim maktabi	69	**1**	0	1	0	0	0	0	0
28	16-sonli o‘rta ta’lim maktabi	55	**1**	0	1	0	0	0	0	0
29	15-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**70**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
30	11-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**60**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
31	10-sonli o‘rta ta’lim maktabi	**63**	**1**	0	1	0	0	0	0	0
32	28-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	72	**1**	0	1	0	0	0	0	0
33	27-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	33	**1**	0	1	0	0	0	0	0
34	23-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	49	**1**	0	1	0	0	0	0	0
35	22-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	37	**1**	0	1	0	0	0	0	0
36	21-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	45	**1**	0	1	0	0	0	0	0
37	20-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	48	**1**	0	1	0	0	0	0	0

38	19-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	30	**1**	0	1	0	0	0	0	0
39	18-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	34	**1**	0	1	0	0	0	0	0
40	15-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	43	**1**	0	1	0	0	0	0	0
41	12-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	34	**1**	0	1	0	0	0	0	0
42	11-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	34	**1**	0	1	0	0	0	0	0
43	1-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	38	**1**	0	1	0	0	0	0	0
	Tuman bo‘yicha jami:	**10666**	**146**	**9**	**113**	**4**	**11**	**4**	**5**	**0**

G‘uzor tuman hokimining
2022 yil 29 sentabrdagi
388-4-56-Q/22-son qaroriga
3-ilova

Tashkilotning nomi

_____
_____

Yuridik manzili:

_____
_____

Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim etiladi.

Har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5-kunigacha

20___ yil "___" _____ oyi uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini zahiraga qo‘yish to‘g‘risida
M A ’ L U M O T

1. _____ tumanlar (shaharlar) hokimlarining qaroriga muvofiq nazarda tutilgan hisobot yilida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari, shu jumladan, nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari soni.

2. Zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirilganlar soni:

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar soni	Hisobot davri oxiridagi holati bo‘yicha ishlamoqda (kishi)	Ulardan, ishga joylashtirilganlar	
		hisobot oyida	yil boshidan boshlab
Jami:			
Shu jumladan:			
o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar			
umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari			
safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar			
nogironlar va pensiyaoldi yoshidagi shaxslar			
jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar			
odam savdosi qurbonlari			

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun bo‘sh ish o‘rinlari soni, hisobot davri oxiriga _____ ish o‘rinlari.

Tashkilotning rahabri _____
(imzo)

Kadrlar bo‘limi boshlig‘i (inspektori) _____
(imzo)

M.O‘.

20____ yil "____" _____